



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISH: IJTIMOYIY-MADANIY YONDASHUV

Sodirjonov Muhriddin Mahamadaminovich
Namangan davlat universiteti, professor (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek jamiyatida kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta’minlashda muhim omil sifatida inson kapitalining ahamiyati sotsiologik nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Shuningdek, kambag‘allik muammosi va uni bartaraf etishda asosiy e’tibor, avvalo, aholining yashash sharoitlarini kuzatish, haqqoniy baholash hamda undagi muammolarning ildizlari va muhim omillarini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi lozimligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, ta’lim, salomatlik, kambag‘allik, ijtimoiy taraqqiyot, sifatli ta’lim, inklyuzivlik, barqaror iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy himoya, davlat siyosati, malakali tibbiy xizmat, strategik rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy omillar, etnosotsiologik xususiyatlar, ijtimoiy kapital, aholi turmush sifati, milliy qadriyatlar, globallashtirish.

СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА: СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОД

Содиржонов Мухриддин Махамдаминович
Наманганский государственный университет, профессор (PhD)

Аннотация

В данной статье с социологической точки зрения исследуется значимость человеческого капитала как важного фактора в сокращении бедности и обеспечении социально-экономического благополучия в современном узбекском обществе. Также подчеркивается, что решение проблемы бедности должно основываться, прежде всего, на наблюдении за условиями жизни населения, объективной оценке и анализе коренных причин и ключевых факторов, лежащих в основе этой проблемы.

Ключевые слова: Человеческий капитал, образование, здоровье, бедность, социальное развитие, качественное образование, инклюзивность, устойчивый экономический рост, социальная защита, государственная политика, квалифицированные медицинские услуги, стратегическое развитие, социокультурные факторы, этносоциологические особенности, социальный капитал, качество жизни, национальные ценности, глобализация, цифровизация, социальный капитал.

REDUCING POVERTY THROUGH HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT: A SOCIO- CULTURAL APPROACH

Sodirjonov Muhriddin Mahamadaminovich
Namangan State University, Professor (PhD)

Abstract

This article explores the significance of human capital as a critical factor in reducing poverty and ensuring socio-economic well-being in contemporary Uzbek society from a sociological perspective. It also emphasizes that addressing poverty should primarily focus on monitoring the living conditions of the population, conducting accurate assessments, and analyzing the root causes and key factors underlying the issues.

Keywords: Human capital, education, health, poverty, social development, quality education, inclusive, sustainable economic growth, social protection, state policy, qualified medical services, strategic development, socio-cultural factors, ethnosociological characteristics, social capital, quality of life, national values, globalization, digitalization, social capital.

Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy maqsadi — har bir shaxs o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, sog‘lom, ijodiy, sifatli ta‘lim olishi va faol hayot kechirishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Inson kapitalini rivojlantirish Yangi O‘zbekiston strategiyasining markazida turadi. Bu yo‘nalish 2030-yilgacha kambag‘allikka barham berish, umumiy farovonlikni oshirish, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash hamda mamlakatning rivojlanayotgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashiga xizmat qiluvchi sa‘y-harakatlarning ajralmas qismidir. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari, kafolatli daromad manbalari, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. “Insonni o‘zgartirish orqali jamiyatni o‘zgartirish” g‘oyasini amalga oshirishda islohotlar markazida inson omili turishi, inson kapitalini strategik rivojlantirish esa davlat ijtimoiy siyosatining zaruriy sharti ekani alohida ta‘kidlanadi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI (Research Methodology)

Inson kapitali — bu odamlar o‘z hayoti davomida sarmoya kiritadigan va to‘playdigan bilim, ko‘nikma hamda salomatlik zaxirasi bo‘lib, u jamiyatning faol a‘zosi sifatida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi. Sog‘liqni saqlash, sifatli ta‘lim, yangi ish o‘rinlari yaratish va malaka oshirish orqali insonlarga sarmoya kiritish inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa kambag‘allikka barham berish va ijtimoiy jihatdan yanada yaxlit jamiyat qurishning muhim omilidir. Bizningcha, ta‘lim, iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya va barqarorlikni ta‘minlash orqali davlat va jamiyat birgalikda kambag‘allikni kamaytirish hamda barqaror rivojlanishga erishishi mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi, balki ijtimoiy adolat va barqarorlikni ham mustahkamlashga yordam beradi.

So‘nggi yillarda yurtimizda inson kapitalini tadqiq etish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologik tadqiqotlarning ham muhim mavzularidan biriga aylandi. Inson kapitalining sotsiologik jihatlari — M. Bekmurodov, A. Umarov, A. Xolbekov; ijtimoiy-madaniy omillari va inson kapitali rivojlanish jarayonlarining etnosotsiologik xususiyatlari — M. Sodirjonov; sotsial kapitalning aholi turmush sifatini oshirishdagi ahamiyati esa X. Akramov tomonidan tadqiq etilganini alohida ta‘kidlash joiz [4]. Shuningdek, faylasuf va siyosatshunos olimlardan M. Abdullaeva ta‘limda inson kapitali muammosini, Q. Nazarov milliy qadriyatlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyatini, F. Yo‘ldasheva globallashtirish jarayonida ma‘naviy qadriyatlarni, G. G‘affarova inson kapitalini rivojlantirishda raqamlashtirish va milliy qadriyatlarning o‘rnini, M. Sharipov intellektual inson kapitalining mohiyati va xususiyatlarini, sog‘liq kapitali kategoriyasi, uning turlari va manbalarini, A. Abdullaev inson kapitali namoyon bo‘lishining ijtimoiy-falsafiy jihatlari, F. Qosimov yangilanayotgan O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini, M. Muhammedov inson kapitalini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari va ularning taraqqiyotdagi ahamiyatini, M. Norqobilov ijtimoiy kapitalni milliy hamjihatlikni ta‘minlash manbai sifatida, D. Ernazarov esa O‘zbekistonda ijtimoiy kapital rivojlanish tarixi, xorijiy davlatlar tajribasi hamda mahallada ijtimoiy kapital rivojlanishiga oid masalalarni tadqiq etgan [5].

Xorijiy olimlardan pokistonlik M. Majid va M. Malik tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida savodxonlik darajasining kuchli ta‘siri qayd etiladi [10]. Bunda insonlarning kambag‘allikka tushib qolishiga oila boshlig‘ining tajribasi, yoshi, jinsi va bandligi kabi omillar ta‘sir qilishi ko‘rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotchilar oila boshlig‘i ayol bo‘lishi kambag‘allik xavfini oshirishi mumkinligi haqidagi g‘oyani ilgari suradilar. Bu holat ayollarning ta‘lim olish va daromad topish imkoniyatlari nisbatan

cheklanganligi bilan izohlanadi. Ch. Peng va boshqalar o'z tadqiqotlarida kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilib, quyidagilarni sanab o'tadilar: qarilik, ayol bo'lish, turmush o'rtog'ining yo'qligi, to'liq bo'lmagan oilada voyaga yetish, ishsizlik, davlat uyida ijarada yashash, savodxonlik va sog'liq darajasining pastligi [11]. Shuningdek, oilada nogiron yoki surunkali kasallikka ega bo'lgan shaxsning mavjudligi ham kambag'allik xavfini oshiradi. Ta'kidlash lozimki, oliy ta'limga ega bo'lish kambag'allik va chuqur qashshoqlikdan saqlanishga yordam beradi. Neoliberalizm mafkurachisi Alfred fon Xaek kambag'allikni "insoniyat taraqqiyotidagi tabiiy hodisa va u jamiyat manfaati uchun zarur" [17], deb hisoblaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR (Analysis and Results)

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, kambag'allikni faqat pul tarqatish yoki nafaqa to'lash orqali hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun kambag'al oilalar a'zolarini o'qitish, kasbga o'rgatish va ish bilan ta'minlash muhimdir. Bugungi kunda korxonalarda 250 mingta vakant ish o'rnini mavjud. Biroq kambag'al oilalarning 35 foiz ishga layoqatli a'zolarida bilim va ko'nikma yetarli emas. Ayrimlari esa surunkali kasalliklar tufayli doimiy ishlay olmayapti. Kambag'al oilalarning 83 foizida tomorqa mavjud bo'lsa-da, suv, elektr va yo'l bilan bog'liq muammolar ularning imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonining birinchi bo'limi "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan bo'lib, unda ta'lim tizimi, aholi salomatligini ta'minlash, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, kambag'allikni qisqartirish, yoshlarga oid davlat siyosati, sport, ma'naviy taraqqiyot va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan islohotlar qamrab olingan.

Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, inson kapitali — bu shaxslar va jamoalar tomonidan ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatlarni, ijtimoiy aloqalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun inson salohiyati asosida shakllanadigan ehtiyojlar, qobiliyatlar va intilishlar tizimidir.

E'tiborimizni yanada ko'proq tortgan jihat shuki, davlat rahbari kambag'allikni faqat pul tarqatish yoki nafaqa to'lash bilan hal qilib bo'lmashligini alohida ta'kidlaydi. Buning uchun kambag'al oila a'zolarini o'qitish, kasbga o'rgatish va ish bilan ta'minlash zarur. Inson kapitali esa, o'z navbatida, "Inson + ta'lim = moddiy va ma'naviy farovonlik" tamoyilini ifoda etuvchi muhim fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

Inson kapitalining alohida komponentlari shaxs yoki ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlari, qobiliyatlari va tayyorgarlik tizimlari orqali, maxsus bilim olish, ko'nikmalarni rivojlantirish va o'rganish jarayonida shakllanadi. Bu esa ularga jamiyatda o'z ijtimoiy-iqtisodiy maqomini shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Insonlarning faoliyati, ya'ni ular o'z kapitalini shakllantiradigan jarayon, ularning ijtimoiy sifatlariga bog'liq bo'lib, aynan shu sifatlarining rivojlanishi insonning o'zini, uning insoniy qobiliyatlarini boyitadi. Inson kapitali, iqtisodiy kapital kabi, mehnat jarayonidan kelib chiqadi va aynan shu jarayonda zarur sifatlar shakllanadi.

Singapur mo'jizasining asosiy siri haqida Li Kuan Yu shunday ta'kidlaydi: "Agar muvaffaqiyatning yagona formulasi bo'lsa, u tinimsiz o'qish va o'rganishdir. Bu — narsalarni ishlashga majbur qilish va ular nima uchun ishlamayotganini tushunishdir" [13]. Bu fikr ta'lim, o'qish va izlanish inson kapitalining samaradorligini namoyon etuvchi asosiy omillardan biri ekanini ko'rsatadi. Inson kapitali uchun maxsus element sifatida ta'lim belgilanadi va uning asosiy qismlari to'rtta komponent birlashmasidan tashkil topadi: madaniy va etnik xususiyatlar, umumiy ta'lim, kasb-hunar ta'limi va asosiy malaka fazilatlar.

Ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat mamlakatni rivojlantirish strategiyasi, balki inson kapitali hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosat hamdir. Buning natijasida inson kapitali takomillashadi, moddiy farovonlik va sog'lom turmush tarziga erishish imkoniyati oshadi. Inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Insonning qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va tajribasi uning shaxsiy boyligi

hisoblanadi [16].

To'g'ri, ta'lim zarur, ammo u tanqidiy fikrlashni shakllantiradigan va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi shart. O'tgan davr mobaynida ta'lim tizimida ayrim salbiy stereotiplar shakllanganini kuzatish mumkin. Jamiyatda ijtimoiy mavqeni oshirish uchungina oliy ma'lumotli bo'lish, qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar, oliy ta'limni tanlash, shuningdek, yoshlarning hayotiy pozitsiyalarini faqat talabalik bilan bog'lab belgilashi kabi holatlar mavjud bo'lgan. Ta'lim jarayonida esa ularga ko'nikmalar ko'pincha mexanik tarzda o'rgatilgan. Masalan, ma'ruzalarni tinglash, ayrim ma'lumotlarni yodlash va formulalarni qo'llash ta'limning asosiy mazmuniga aylangan. Taqdim etilgan fikrni shubha ostiga olish, uni ochiq bayon etish va eng asosiysi, mustaqil fikrlashga esa juda kam e'tibor qaratilgan.

Har qanday inson kapitalining sifat darajasi mamlakat miqyosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunda "ta'lim faqat shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyatiga emas, balki jamiyat va, qolaversa, millatning jamoaviy kelajagiga kiritilgan sarmoya sifatida ta'sir ko'rsatadi" degan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Inson kapitali ma'lum bir kritik darajadan oshganda, jamoaviylikka innovatsion ta'sir kuchayadi. Oliy ma'lumotli insonlar ulushining ortishi, bizning nazaramizda, "qadriyat va udumlarga asoslangan jamoaviylik"ni "innovatsion jamoaviylik"ka, ya'ni yaratuvchi xalq yoki yaratuvchi millatga aylantirish imkonini beradi.

Kambag'allik jamiyatimizda uzoq yillar davomida "yopiq mavzu" bo'lib keldi, ilgari bu kategoriyaning o'rniga yumshoqroq shaklda "kam ta'minlanganlik" tushunchasi qo'llanilgan edi. Yurtimizda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan e'tiborning kuchayishi aholi daromadlari tengsizligini kamaytirish, ijtimoiy siyosatning qisqa va uzoq muddatli natijadorligini ta'minlash hamda budjet xarajatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishni talab etmoqda.

O'zbek tilining izohli lug'atida "kambag'al" so'zi "kam, yetishmaydigan, hayotiy tirikchilik uchun zarur narsalarning yetishmasligi holati, yo'qchilik yoki muhtojlikda yashash" ma'nolarida qayd etilgan [15]. Umuman olganda, o'zbek tilining boy imkoniyatlarini e'tirof etgan holda, kambag'allik tushunchasi qashshoq, faqir, g'arib, nochor, muhtoj, bechora, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj kabi so'zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. BMT ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik — insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashash holatidir [14].

Shu o'rinda yunon faylasufi Aristotelning: "Kambag'allik yoki shunga o'xshash boshqa azoblarga chiday olmay o'z joniga qasd qilish — bu mardlik emas, aksincha, qo'rqqoqlik belgisidir. Chunki bu — ojizlik, qiyinchiliklardan qochishdir. Ojiz kishi o'limni yaxshiligi uchun emas, azoblardan qutulish uchun bo'yniga oladi" [3], degan fikrini keltirish o'rinlidir.

Islom dinida insonni nochorlik girdobidan xalos qilish, kambag'allik va qashshoqlikning doimiy rahna solishidan qutqarish, uning xotirjam, faol va baxtli yashashini ta'minlash uchun besh muhim tamoyil asosiy yondashuv sifatida keltiriladi. Jumladan, Qur'oni karimda nochorlikdan xalos bo'lishning eng muhim va birlamchi yo'li mehnat qilish ekani ta'kidlangan. Shuningdek, qarindoshlik haqlari, zakot, zakotdan tashqari majburiyatlar, ixtiyoriy sadaqalar va shaxsiy ehsonlar insonni kambag'allikdan qutqarish yo'llari sifatida belgilangan [9]. Tadqiqotchi N. Xolmurodov ham o'z tadqiqotida zakot tizimini kambag'allik muammosini hal etishning eng kuchli choralaridan biri sifatida baholaydi. Zakotni faqat arzimagan ulushlar deb tushunmaslik kerak, chunki ekin ekiladigan yer hosilining o'ndan biri yoki yigirmadan birini berish ham zakotdir. "Ey mo'minlar, kasb qilib topgan narsalaringizning halol-pokizalaridan va Biz sizlar uchun yerdan chiqargan narsalardan infoq-ehson qilingiz!" degan fikrlar musulmon jamiyatida bu amalning naqadar muhim ibodat ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kambag'allik har bir jamiyat uchun xos bo'lgan hodisa bo'lsa-da, uning darajasi va ko'lam turlicha bo'lishi mumkin. Kambag'allik darajasini belgilash ham turli mamlakatlarda

o'ziga xos yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Chunki mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, resurslari, tarixiy qadriyatlari, turmush tarzi, milliy qarashlari, madaniyati va urf-odatlarini farqlanadi. Bu farqlar kambag'allikning ko'rinishlariga ham ta'sir qiladi. Shu sababli daromadlar darajasi va iqtisodiyot tuzilishi bilan bog'liq holda har bir mamlakatda kambag'allik o'ziga xos xususiyat kasb etadi. "Kambag'allik — insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi cheklovlarning mavjudligi, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki tibbiy xizmatdan foydalanishi, faoliyat yuritishi yoki daromad keltiruvchi mehnat bilan shug'ullanish imkoniyatlarining yetishmasligi, kredit olish imkoniyatlarining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik — bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan cheklanganligi, xavf-xatarlar oldida o'jizligi va nochorligi bilan tavsiflanadi" [12].

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqot va kuzatishlar natijasida aholi kambag'allashuviga ta'sir qiluvchi quyidagi omillar ajratib ko'rsatildi: oiladagi nosog'lom muhit (nogironlik, ilmsizlik, yetarli malakaga ega emaslik), kasalliklar (turli viruslar, erta o'lim, genetik va orttirilgan kasalliklar), tabiiy shart-sharoitlar (qurg'oqchilik, toshqin, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar), iqtisodiy omillar (iqtisodiy madaniyatning yetishmasligi, hududlarda iqtisodiy o'sishning sustligi, moliyaviy beqarorlik, infratuzilma va kommunikatsion texnologiyalarning yetib bormaganligi, pulning qadsizlanishi, yangi ish o'rinlarining amalga oshirishida qo'zg'ozda mavjudligi), mehnatga layoqatsizlik yoki mehnatga loqaydlik (dangasalik, ishyoqmaslik, boshqalar hisobiga yashash), shaxslardagi ijtimoiy illatlar (giyohvandlik, spirtli ichimliklarga qaramlik, fohishabozlik), ishsizlik (mehnat bozorida raqobatga dosh berolmaslik, mavsumiy yoki qisman bandlik, muayyan hunarga ega emaslik), boqimandalik kayfiyati (loqaydlik, ertangi kun va kelajakka ishonchsizlik, inson va hayot mohiyatini anglamaslik), ortiqcha hashamatga intilish (urf-odat deya to'y, uy, mashina va boshqa narsalarga keragidan ortiqcha mablag' sarflash istagi), korrupsiya (mentalitetdagi salbiy hodisalar, nepotizm va paternalizm), shuningdek, davlatning olib borayotgan iqtisodiy-ijtimoiy siyosati va islohotlariga nisbatan agressiv yoki pessimistik munosabat.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham "mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida ikki baravar qisqartirish", buning uchun esa "kambag'allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy darajada ('mahallabay' tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo'lga qo'yish" [1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, davlat rahbari Sh. Mirziyoyev birinchi marta mamlakatimizda kambag'al aholi qatlami mavjudligini, ular "aholining taxminan 12–15 foizini, ya'ni 4–5 million kishini tashkil etishini" ta'kidlaydi. Shu asosda "xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqish, xalqaro me'yorlar asosida chuqur o'rganishlar o'tkazish hamda kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish" vazifasi belgilab berildi [2]. Mazkur vazifalar kambag'allikni qisqartirishga doir yangicha yondashuvlar asosidagi tadqiqotlarga ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu bois ijtimoiy falsafa doirasida kambag'allikni qisqartirish masalasini sabab-oqibat munosabatlari asosida tahlil qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Kambag'allikni o'rganishda quyidagi sotsiologik tadqiqot metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kvantitativ tadqiqotlar statistika va anketalar yordamida kambag'allik darajasini o'rganish hamda turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Kvalitativ tadqiqotlar esa intervyular va fokus-guruhlar orqali kambag'allik sharoitida yashayotgan shaxslarning tajribalarini o'rganadi. Bu esa kambag'allikning shaxsiy va hissiy jihatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Kambag'allik bo'yicha sotsiologik tadqiqotlar uning sabablari, oqibatlari va ijtimoiy ta'sirlarini tushunishga xizmat qiladi. Bu tadqiqotlar kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni

ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Kambag'allikni o'rganish ijtimoiy siyosat va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, imkoniyatlar tengligining kamayishi bilan yoshlar o'rtasida ta'lim olish, mutaxassislik bo'yicha ishga joylashish, mavjud ish joyini yo'qotishdan qo'rqish kabi muammolar ayniqsa keskinlashmoqda. Mehnat bozoridagi talab bilan mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlanayotgan mutaxassisliklar o'rtasida yetarli mutanosiblik mavjud emasligi sababli yoshlar bandligini ta'minlash masalalari dolzarblashmoqda.

XULOSA

Ta'lim qashshoqlikni kamaytirishda asosiy vosita hisoblanadi. U insonlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Shuning uchun ta'limga ustuvor e'tibor qaratish butun jamiyat uchun muhim vazifadir. Yuqorida ta'kidlanganidek, har qanday inson kapitalining mukammalligi uning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan ta'lim sifatiga bevosita bog'liq. Zamonaviy oliy ta'limga alohida urg'u berilayotgan bir paytda, endilikda shunchaki diplomli mutaxassis emas, balki raqobatbardosh, malakali, irodasi mustahkam va davr ruhiga mos fazilatlar — bosiqlik, vazminlik, diplomatiya, muloqot madaniyati, ijobiy xarakter, tashkilotchilik, tashabbuskorlik va boshqa sifatlarni egallagan kadrlarga talab yuqori. Rivojlangan davlatlar va korporatsiyalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, universitetda olingan ta'lim bandlik darajasining nafaqat miqdorini, balki sifatini ham oshiradi [16]. Bizningcha, kambag'allik iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan muhim muammo bo'lib, sotsiologik tadqiqotlarda keng o'rganilishi zarur. Uni o'rganish sabablari, oqibatlar va ijtimoiy ta'sirlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Absolyut kambag'allik — insonning asosiy ehtiyojlarini qondira olmasligi, nisbiy kambag'allik esa uning jamiyatdagi boshqa insonlar bilan taqqoslaganda iqtisodiy ahvolining yomonligini anglatadi. Kambag'allik odamlar, oilalar va jamoalar uchun qator salbiy oqibatlarga olib keladi. Kambag'al sharoitda yashovchi kishilar sog'lig'ining yomonlashuvi, surunkali kasalliklar, ruhiy salomatlik muammolari va erta o'lim xavfi bilan ko'proq to'qnash keladilar. Bu, qisman, kambag'al turmush tarziga xos stress va noaniqlik, shuningdek, sog'liqni saqlash va salomatlikni qo'llab-quvvatlovchi boshqa resurslardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, bunday qatlam vakillari iqtisodiy zinapoyadan yuqoriga ko'tarilish va turmush darajasini yaxshilashda ham jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Kambag'allik chegarasi ostida yashovchi oilalarning bolalari uchun ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi va ularning ta'lim natijalari ham pastroq bo'ladi. Ishlaydigan, biroq kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan oilalarda ko'pincha oilaviy notinchlik va ijtimoiy tartibsizliklar kuzatiladi. Bu esa kambag'allik va ijtimoiy disfunktsiya doirasining takrorlanishiga olib keladi, uni bartaraf etish esa uzoq vaqt talab qiladi. Davlat o'zining tashqi siyosatida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashi va mintaqaviy rivojlanishni moliyalashtirishni ko'paytirishi, yanada barqaror, inklyuziv va mustahkam iqtisodiyotga o'tish uchun faol siyosat yuritishi muhimdir. Mamlakatlar, avvalo, iqtisodiy o'sish orqali qashshoqlikni kamaytirishga e'tibor qaratishlari kerak. Bunga ish o'rinlari yaratish, inson kapitalini rivojlantirish, xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan investitsiyalarni oshirish orqali erishish mumkin. Kambag'allikni qisqartirishda inson kapitalini rivojlantirish ijtimoiy-madaniy omillarni ham hisobga olishni talab etadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy aloqalar va madaniy qadriyatlar kambag'allikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillarni uyg'unlashtirish orqali jamiyat barqaror rivojlanishga erishishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga

- Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar // Xalq soʻzi gazetasi, 2020-yil 25-yanvar.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: Oʻzbekiston, 2022. — 355 b.
 4. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. — 436 b.;
 5. Shu muallif: Oʻzbek mentaliteti. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004;
 6. Umarov A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda mutolaaning roli: sotsiologiya fan. dokt. dissertatsiyasi. — Toshkent: OʻzMU, 2005;
 7. Xolbekov A. Sharq va Gʻarb mutafakkirlarining sotsiologik taʼlimoti. — Toshkent: Universitet, 1996. — 30 b.;
 8. Sodirjonov M. Inson kapitali rivojlanishining etnosotsiologik xususiyatlari: PhD dissertatsiyasi. — Toshkent, 2022;
 9. Akramov X. Ijtimoiy kapital va turmush sifati: PhD avtoreferati. — Toshkent, 2021.
 10. Development Review. — 2015. — Vol. 54, № 4 (Part II). — B. 701–718.
 11. Evidence from Hong Kong: yuqori daromadli jamiyatda kambagʻallik masalalari // Social Indicators Research. — 2019. — 144-jild. — B. 219–250.
 12. DOI: <https://doi.org/10.1007/s11205-018-2038-5>
 13. Xolmurodov N. Kambagʻallik muammosi va uni qisqartirish yoʻllari // Oriental Journal of History, Politics and Law. — URL: <https://www.supportscience.uz/index.php/ojmp>
 14. Majeed M. T., Malik M. N. Uy xoʻjaliklari kambagʻalligining determinantlari: Pokiston misolida tadqiqot.
 15. Peng C., Fang L., Wang J. va boshqalar. Kambagʻallik determinantlari va ularning turli darajalardagi farqlari.
 16. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi. Kambagʻallikni aniqlash boʻyicha qoʻllanma. — Nyu-York; Jeneva, 2017.
 17. Li Kuan Yu. Isteʼdodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir. — Toshkent: Zamin nashr, 2019. — 36 b.
 18. Kambagʻallik va qashshoqlik oʻrtasidagi farq // <https://uz/news/2021/01/02/kambagallik-va-qashshoqlik-ortasida-qanday-farq-mavjud>
 19. Madvaliyev A. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. — Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. — 306 b.
 20. Sodirjonov M. Inson kapitali rivoji va uning omillari // Yangi Oʻzbekiston gazetasi. — 2022. — № 30.
 21. Xusnutdinova L. Bozor iqtisodiyotida kambagʻallik: avtoreferat. — Qozon, 2012.
 22. Sodirjonov M. Education as the most important factor of human capital development // Theoretical & Applied Science. — 2020. — № 4. — B. 901–905.
 23. Sodirjonov M. Kutubxonalar inson kapitalini shakllantirishda muhim institut // Taraqqiyot tadqiqotlari. — 2024. — 2(16). — B. 18–21.
 24. Strauss H., de la Maisonneuve C. Taʼlimning iqtisodiy oʻsishga taʼsiri // OECD Working Papers. — 2007. — № 562.
 25. Trostel P., Walker I., Woolley P. Taʼlimdan iqtisodiy daromadlar // Labour Economics. — 2002. — 9(1). — B. 1–16.
 26. Turner S. va boshqalar. AQShda taʼlim va daromad // Economic Perspectives. — 2007. — 21(4). — B. 25–46.
 27. Sodirjonov M. Axborotlashgan jamiyatda etnik jarayonlar // Academic Research in Educational Sciences. — 2024.
 28. Sodirjonov M. Ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar // in Library. — 2023. — № 2. — B. 214–219.
 29. Sodirjonov M. Inson kapitalining rivojlanishi tahlili // in Library. — 2023. — № 1. — B. 195–203.